


O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA VAZIRLIGI

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali

“ IQTISODIYOT ” fakulteti

**QXI-123, BB-123, BB-124, IQT-125-225-325-425-guruhlari ta’lim-tarbiya maslahatchisi Bektemirov Shokir
Xidirboyevichning 2025-2026-o’quv yilidagi yillik**

ISH REJASI



Samarqand - 2025



"KELISHILDI"

Iqtisodiyot fakulteti dekani

G.A. Ibragimov

2025- yil

"TASDIQLAYMAN"

Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar
bo'yicha direktorning birinchi o'rinbosari

H.I. Turdibekov
2025- yil

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali "Iqtisodiyot" fakulteti QXI-123, BB-123, BB-124, IQT-125-225-325-425- guruhlar ta'lim-tarbiya maslahatchisi Sh.X.Bektemirovning yillik ish faoliyati rejasi

T/r	Bajariladigan chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Muddati	Mas'ullar
I. Ma'naviy-ma'rifiy va axloqiy tarbiya sohasida amalga oshiriladigan ishlar				
1	Talabalarni "Odob axloq kodeksi" va ichki tartib qoidalar bo'yicha normativ hujjatlar bilan tanishtirish.	1. "Odob-axloq kodeksi"ning mazmun-mohiyati bilan barcha kurs talabalarini tanishtirish; 2. OTMning ta'lim-tarbiya jarayonini tartibga soluvchi qonun- qoidalariga rioya qilish bo'yicha tushuntirish ishlarini olib borish; 3. Talaba tomonidan odob-axloq qoidalar va boshqa qoidalar buzilganda unga nisbatan chora ko'rish to'g'risida ta'lim muassasasi va fakultet rahbariyatiga taklif kiritish.	O'quv yili davomida	Sh.X.Bektemirov, profilaktika inspektori
2.	"Birinchi kurs maktabi" tadbirlarini yuqori saviyada tashkil etish.	1. Birinchi kurs talabalarining faol ishtirokini ta'minlash; 2. Talabalarining ijtimoiy-psixologik portretini shakllantirish; 3. Talabalarga ijtimoiy-ma'naviy va psixologik yordam ko'rsatgan holda o'zini yanada yaxshiroq anglash, o'qish va hayotda to'g'ri qaror qabul qilish, tanlagan kasbiga muhabbatni oshirish.	2025/2026- o'quv yili Sentyabr-oktyabr O'quv yili davomida	Sh.X.Bektemirov
3	Biriktirilgan talabalarining ijtimoiy psixologik portretini shakllantirish	1. Biriktirilgan talabalarining ijtimoiy holati (oilaviy holatiga tegishli barcha mezonlar asosida) o'rganish orqali ularning ijtimoiy portretini shakllantirish; 2. Biriktirilgan talabalarining psixologik holatiga baho berish orqali (xulq atvori va xarakter xususiyatlarini o'rganish asosida) o'rganish orqali ularning psixologik portretini shakllantirish;		Sh.X.Bektemirov, psixolog, profilaktika inspektori, dekan o'rinbosari

		3. Har bir talaba bo'yicha ijtimoiy-psixologik portretni umumlashtirish va ularni shartli ravishda toifalarga ajratish; 4. "Ijtimoiy xavfli guruh" ro'yxatini shakllantirish; 5. Talabalarning ijtimoiy-psixologik portreti asosida ular bilan umumprofilaktik tadbirlar tashkil etish		
4.	2025/2026-o'quv yili davomida "Yangi uyg'onish davri — kitob va kutubxonadan boshlanadi" shiori ostida kitobxonlik anjumanlari va yangi kitoblarni taqdimotlarini o'tkazib borish.	1.Filialning Axborot resurs markazi mas'ullari bilan ishlab chiqilgan reja-grafik bo'yicha uchrashuvlar tashkil qilish. 2.Filialda tashkil etiladigan kitobxonlik uchrashuvlarida talabalar ishtirokini ta'minlash	2026-yil aprel-may oylari davomida	Sh.X.Bektemirov, tarbiyachi-pedagog, kutubxonachi, yoshlar yetakchisi
5.	"Teatr - tarbiya maskani", "Vatan bo'ylab sayohat" shiori ostida mamlakatimizning qadimiy va boy tarixini o'rganish, yoshlar orasida keng targ'ib etish, ularda milliy g'urur va iftixor tuyg'usini mustahkamlash maqsadida "Ajdodlar xotirasi yodimizda" (Adiblar xiyoboni, muqaddas qadamjolarga) mavzularida professor-o'qituvchilar va talablarning madaniy ekskursiyalarini tashkil etish	1.Madaniy ekskursiyalari tashkil etish reja-jadvalini ishlab chiqish; 2.Ekskursiyalarni tashkil etish; 3.OAV va ijtimoiy tarmoqlarda yoritish.	O'quv yili davomida	Sh.X.Bektemirov, Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi, Yoshlar masalalari bo'yicha dekan o'rinbosari, yoshlar yetakchisi
6.	Talabalar o'rtasida turli tanlov, aksiya, musobaqa, ma'rifiy uchrashuv, davra suhbatlari tashkil etish.	1. Quyida berilgan: "Og'usiz hayot sari" mavzusida ma'rifiy uchrashuvlar, "Jaholatga qarshi ma'rifat" mavzusida tadbirlar, "Biz "ommaviy madaniyat"ga qarshimiz" kabi mavzularda uchrashuvlar, davra suhbatlari, "Talabalar teatr studiyalari", "Quvnoqlar va zukkolar", "Ilhom mukofoti", "Islohotlar bilimdoni", "Yil talabasi", "Zakovat" intellektual o'yinlari, "Besh muhim tashabbus" doirasidagi klub, to'garak va tanlovlarga jalb qilish, "Sport bizni birlashtiradi", "Sport — salomatlik garovi" shiori	2025/2026 o'quv yili davomida	Sh.X.Bektemirov, soha prorektorlari, fakultet dekanlari, tarbiyachi-pedagoglari, psixologi, jamoat tashkilotlari, matbuot kotibi, profilaktika inspektori


		ostida chellenj va aksiyalar, “Yangi O‘zbekistonni yoshlar bilan birga quramiz!” mavzusida uchrashuvlar o‘tkazish; 2. Tanlov, aksiya, musobaqa, ma’rifiy uchrashuv, davra suhbatlarida talabalar keng ishtirokini ta’minlash; 1. 3. OAV va ijtimoiy tarmoqlarda yoritish.		
7.	Talabalarda sog‘lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirish, ularni yuksak ma’naviyatli shaxs qilib tarbiyalashga qaratilgan ishlar natijadorligini oshirish (bunda quyidagi yo‘nalishlarda “Ma’naviyat ma’rifat va madaniyat oyliklari” ni o‘tkazish.	Talabalarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish va ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan ishlar natijadorligini oshirish maqsadida quyida oylarda belgilangan mavzular doirasida turkum tadbirlar va loyihalarni amalga oshirish: 1. Sentyabr – “O‘zlikni anglash” oyligi 2. Oktyabr – “Sog‘lom turmush tarzi oyligi” 3. Noyabr – “Intellectual imkoniyatlar oyligi” 4. Dekabr – “Huquqiy savodxonlik oyligi” 5. Yanvar – “Huquqbuzarliklar profilaktikasi oyligi” 6. Fevral – “Kitobxonlik oyligi” 7. Mart – “Sport oyligi” 8. Aprel – “Milliy qadriyatlar va yashil makon oyligi” 9. May – “Xotira va qadrlash oyligi” 10. Iyun – “Yoshlar oyligi”	2025/2026 o‘quv yili davomida	Sh.X.Bektemirov, soha prorektorlari, fakultet dekanlari, TTJ direksiyasi direktori va tarbiyachi-pedagoglar, psixologi, jamoat tashkilotlari, matbuot kotibi, profilaktika inspektori hamda hamkor huquq tartibot organlari
8.	Talabalarni bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, to‘garak va klublarga a‘zolicini ta’minlash.	1. Klub va to‘garaklar ro‘yxatini shakllantirish; 2. Talabalarni klub va to‘garaklar bo‘yicha xabardor qilish; 3. Talabalarning to‘garaklar faoliyatidagi ishtiroki monitoringini yuritish.	2025/2026 o‘quv yili davomida	Sh.X.Bektemirov, dekan o‘rinbosari, yoshlar yetakchisi
II. O‘quv va o‘quv-uslubiy sohada amalga oshiriladigan ishlar				
9.	Ta’lim jarayonida talabalarning darslari, davomati va dars sifatining monitoringini olib borish	1. O‘quv-tarbiyaviy sohalaridagi muammolarini bartaraf etish bo‘yicha fakultet dekanati bilan hamkorlikda ishlash; 2. Talabaning darslariga qatnashishi, o‘zlashtirish va ijtimoiy hayotidagi roliga oid takliflarni, talabaning rag‘batlantirilishi yoki jazolanishi va maxsus stipendiyalarga loyiqligi bo‘yicha xulosa berish; 3. Talabalarning darslarga qatnashishlari bo‘yicha kunlik davomatini yuritish, sababsiz qoldirilgan dars mashg‘ulotlari yuzasidan tegishli choralar ko‘rish bo‘yicha fakultet dekanatiga bildirgi kiritib borish.	O‘quv yili davomida	Sh.X.Bektemirov, Filial profilaktika inspektori

10.	“Talabalar balansi”ni shakllantirish	1. Talabalarining umumiy elektron ma'lumotlar bazasini ishlab chiqish; 2. Chin yetim, boquvchisini yo'qotgan, nogiron, kam ta'minlangan va ko'p bolali oila farzandlari bo'yicha ma'lumotlar bazasini shakllantirish; 3. Talabalar yashash joylarini o'rganish; 4. Nogironligi bo'lgan, yetim, ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan va kam ta'minlangan talabalarga kasaba uyushmasi bilan hamkorlikda ijtimoiy, ma'naviy va psixologik yordam berish choralarini ko'rish, konsertlarga, teatr tomoshalariga tashrifini ta'minlash.	O'quv yili davomida	Sh.X.Bektemirov, Yoshlar masalalari bo'yicha dekan o'rinbosari, yoshlar yetakchisi, Filial psixologi
11.	Talabalarning o'quv motivlari, shaxsiy yo'nalganligi, qadriyatlar tizimini o'rganish	1. Guruh talabalariga tarbiyaviy ta'sir o'tkazishga yo'naltirilgan mashg'ulotlar otkazish; 2. Pedagogik jamoa ishtirokida tarbiyaviy ta'sirga ega mashg'ulotlar o'tkazish.	Har chorakda	Sh.X.Bektemirov, Filial psixologi
12.	“Oila-mahalla-ta'lim muassasasi” hamkorligi tizimini kuchaytirish	1. Muntazam ravishda talabalarining ota-onasi bilan davra suhbatlari, uchrashuvlar tashkil etish; 2. Ota-onalarning farzandlar tarbiyasidagi o'rni, majburiyati, mas'uliyati va farzandlar bilan o'zaro munosabatlarini mustahkamlashga ko'maklashish; 3. Ta'lim tizimidagi islohotlar haqida ota-onalarga ma'lumot berib borish. 4. Mahalla oqsoqoli, tyutor va talaba o'rtasida o'zaro aloqani yo'lga qo'yish, mahalla fuqarolar yig'inlari, uchastka-profilaktika nozirlari bilan hamkorlikni kuchaytirish.	O'quv yili davomida	Sh.X.Bektemirov, Yoshlar masalalari bo'yicha dekan o'rinbosari, yoshlar yetakchisi
13	“Tyutor jurnali” ni shakllantirish (elektron shakllantiriladi)	1. “Tyutor jurnali” ning 17 ta bandi bo'yicha ma'lumotlarni to'g'ri va to'liq shakllantirish; 2. “Tyutor jurnali” dagi ma'lumotlarni har o'quv semestrda yangilab borish.	2025/2026 o'quv yili davomida	Sh.X.Bektemirov
III. Ilm-fan, innovatsiya va tadqiqotlar sohasida amalga oshiriladigan ish				

14.	Talabalarning xalqarograntlar va loyihalarda faol ishtirokini ta'minlash	1.Xalqaro grant va loyihalar ro'yxatini shakllantirish va e'lon qilish; 2.Talabalarning xalqaro grantlar va loyihalarda qatnashishlariga ko'mak berish; 3.Ilm-fan hamda tadqiqotlarda faol ishtirok etayotgan talabalarni ta'lim muassasasi rahbariyati va jamoat tashkilotlari tomonidan rag'batlantirilishini tashkil etish.	O'quv yili davomida	Sh.X.Bektemirov, o'quv ishlari bo'yicha dekan o'rinbosari, Iqtidorli talabalar bilan ishlash bo'limi
15.	Talabalarning ilm-fan sohasida yuksalishiga ko'maklashish.	1.Talabalarni "Ustoz-shogird" tizimi asosida professor-o'qituvchilarga birlashtirish; 2.Talabalarga ilmiy maqolalar yozishda maslahatlar berish va chop etishda yordam ko'satish. 3.Iste'dodli va iqtidorli talabalarni aniqlash va ularni maqsadli tayyorlash hamda ilmiy to'garaklar, innovatsion startaplarga va klublarga jalb etish.	O'quv yili davomida	Sh.X.Bektemirov, o'quv ishlari bo'yicha dekan o'rinbosari, kafedra mudirlari
16	Respublika va xalqaro tanlovlarda talabalarning faol ishtirokini ta'minlash.	1.Respublika va xalqaro tanlovlar ro'yxatini shakllantirish 2.Iste'dodli va iqtidorli talabalarni aniqlash va ularni respublika va xalqaro tanlovlarga maqsadli tayyorlash; 3.Iqtidorli talabalarni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va boshqa nomdor davlat stipendiyalariga tavsiya etish.	O'quv yili davomida	Sh.X.Bektemirov, Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi, yoshlar masalalari bo'yicha dekan o'rinbosari, o'quv ishlari bo'yicha dekan o'rinbosari, kafedra mudirlari
17	Talabalarni turli ilmiy tadbirlarga jalb etish	1. Konferensiyalar, seminarlar, respublika va xalqaro miqyosdagi olimpiadalar va forumlarda ishtirok etishlarini tashkillashtirish. 2. Tezis va maqolalar yozish bo'yicha professor-o'qituvchilar ishtirokida master klass darslarini tashkil etish.	2025/2026 o'quv yili davomida	Sh.X.Bektemirov, o'quv ishlari bo'yicha dekan o'rinbosari, kafedra mudirlari
IV. Talabalar-yoshlar o'rtasida turli profilaktik tadbirlarni tashkil etis				

18	“Talaba xavfsizligi” oyligi o‘tkazish.	1. “Yoshlar orasida xavfsizlik va jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarlik va jinoyatchilikni oldini olish” mavzusida tadbirlarni tashkil etish; 2. Talabalar TTJ va ijara xonadonlar bo‘yicha geojoylashuv ma’lumotlarini shakllantirish; 3. Talabalarni “Odob-axloq qoidalari”, “Ichki tartib qoidalari” hamda boshqa me’yoriy hujjatlar bilan tanishtirish.	O‘quv yili davomida 10-sentyabrdan 10-oktyabrgacha doimiy	Sh.X.Bektemirov, inspektor, komplaens bo‘lim boshlig‘i, psixologi
19	Psixolog bilan hamkorlikda Talabalar turar joylarida istiqomat qilayotgan talabalar bilan psixoprofilaktik ishlarni amalga oshirish	1. Talabalarning ijtimoiy-psixologik portretini shakllantirish; 2. Psixologik so‘rovnomalar o‘tkazib borish; 3. Psixologik yordamga muhtoj talabalarga mutaxassislar biriktirish.	2025/2026 o‘quv yili davomida	Sh.X.Bektemirov, psixologi
20	Yoshlar o‘rtasida erta nikoh va oilaviy ajralishlarni oldini olish mavzusida tadbirlar tashkil etish.	1. Tadbirlarga mas’ul huquq tartibot organlari xodimlari hamda professor-o‘qituvchilarni doimiy jalb etish; 2. Turli targ‘ibot vositalari (<i>kino, hujjatli film, videorolik, taqdimot, infografikalar</i>) dan foydalanish.	O‘quv yili davomida	Sh.X.Bektemirov, profilaktika inspektori
21	“Huquqbuzarlik, giyohvandlik, axloqsizlik kabi muammolarni bartaraf etishning samarali yo‘llari” mavzusida seminar va davra suhbatlari o‘tkazish	1. Davra suhbatlari bo‘yicha soha mutaxassislarini jalb etish; 2. Ta’sirchan targ‘ibot vositalari (<i>kino, sahna ko‘rinishi, hujjatli film, videorolik, taqdimot, infografikalar</i>) dan foydalanish.	O‘quv yili davomida	Sh.X.Bektemirov, profilaktika inspektori

Ta’lim-tarbiya maslahatchisi



Sh.X.Bektemirov